



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

ABU RAYHON BERUNIY IJODIDA INSONPARVARLIK FALSAFASI: TAHLILIY YONDASHUV

Xandamova Ma'rifat Akramovna

Samarqand davlat chet tillar instituti, dotsent (DSc)

Annotatsiya

Ushbu maqolada buyuk mutafakkir Abu Rayhon Beruniy ijodida insonparvarlik falsafasining mazmun-mohiyati tahlil qilinadi. Olimning ilmiy merosi, uning ta'lim-tarbiya, axloq, ilmga munosabat va inson kamoloti haqidagi qarashlari zamonaviy nuqtayi nazardan yoritiladi. Beruniy asarlarida ilgari surilgan g'oyalar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini saqlab qolayotgani asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Beruniy, insonparvarlik, falsafa, ilm, axloq, ta'lim-tarbiya, madaniyat, ma'naviyat.

ФИЛОСОФИЯ ГУМАНИЗМА В ТВОРЧЕСТВЕ АБУ РАЙХАНА БЕРУНИ: АНАЛИТИЧЕСКИЙ ПОДХОД

Хандамова Маърифат Акрамовна

Самаркандский государственный институт иностранных языков, доцент (DSc)

Аннотация

В статье анализируется философия гуманизма в творчестве великого мыслителя Абу Райхана Беруни. Рассматриваются его научное наследие, взгляды на образование, нравственность, значение науки и развитие личности. Подчеркивается актуальность идей Беруни в современном обществе.

Ключевые слова: Беруни, гуманизм, философия, наука, нравственность, образование, культура.

THE PHILOSOPHY OF HUMANISM IN THE WORKS OF ABU RAYHAN BERUNI: AN ANALYTICAL APPROACH

Khandamova Marifat Akramovna

Samarkand State Institute of Foreign Languages, Associate Professor (DSc)

Abstract

This article analyzes the philosophy of humanism in the works of the great scholar Abu Rayhan Beruni. His scientific heritage, views on education, morality, knowledge, and human development are examined from a modern perspective. The relevance of Beruni's ideas in contemporary society is substantiated.

Keywords: Beruniy, humanism, philosophy, science, ethics, education, culture.

Abu Rayhon Beruniy davri X asrning so'nggi choragi va XI asrning birinchi yarmiga to'g'ri keladi. Bu davr, undan avvalgi IX asr bilan birgalikda, islom mamlakatlarida, ayniqsa, Yaqin Sharq, Movarounnahr va Xuroson hududlarida ilm-fan, falsafa, adabiyot, madaniyat hamda ishlab chiqarish jadal rivojlangan davr bo'ldi.

IX–XI asrlar Sharq xalqlari fani va madaniyatidagi ilmiy yuksalish, shubhasiz, ko'p jihatdan Markaziy Osiyo olimlarining samarali ijodi tufayli yuzaga keldi. Bu davrda riyoziyot, falakiyot, tabobat, kimyo, jug'rofiya, tilshunoslik, hadisshunoslik, falsafa, adabiyot va boshqa ko'plab sohalaridagi yangi kashfiyotlarni Markaziy Osiyo olimlarining xizmatlarisiz tasavvur etib

bo'lmaydi.

Ma'lumki, Abu Rayhon Beruniyning ilmiy faoliyati X asr oxiri va XI asrning birinchi yarmiga to'g'ri keladi. Aynan shu davrda Markaziy Osiyo xalqlarining fani va madaniyati yuksalib, ko'plab qomusiy olimlar yetishib chiqdi. Hozirgi zamon fanlari asosini yaratgan buyuk allomalar — Muhammad Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Nasr al-Forobiy, Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sino uyg'onish davrining eng yirik vakillari hamda mazkur davr mahsuli edilar.

Beruniy yoshligidayoq matematika, astronomiya va boshqa fanlardan chuqur bilimlarga ega bo'lib, 16–17 yoshlarida yetuk olim sifatida tanilgan. Eng avvalo, uning ko'p tillarni bilgani diqqatga sazovordir. Olimning barcha asarlari arab tilida yozilganligidan kelib chiqib, u o'sha davrning islom olamidagi umumiy ilmiy tili bo'lgan arab tilini va uning grammatikasini mukammal bilgan, degan xulosaga kelish mumkin. Uning “Mineralogiya”, “Hindiston” va boshqa asarlari Beruniyning arab she'riyati hamda undagi vaznlarni puxta bilganidan dalolat beradi [1]. “Osor al-boqiya”, “Qonuni Mas'udiy” va “Saydana” kabi asarlari esa Beruniyning xorazmiy, sug'diy va forsiy-dariy tillarini ham bilganini ko'rsatadi. Yuqorida “Saydana”dan keltirilgan parchaga ko'ra, Beruniy bolalik chog'laridanoq yunon tilini o'rganish bilan shug'ullangan, sanskrit tilini esa yoshlik yillarida Xorazmda hind savdogarlaridan o'rgana boshlagan, degan gipoteza ham mavjud. Beruniy yoshlik davridayoq mazkur tillarda yozilgan tarixiy asarlardan xabardor bo'lganligi uning eng dastlabki yirik asari — “Osor al-boqiya”da (998–1004-yillarda yozilgan) o'z aksini topgan [2].

Mutafakkir ilm o'rganishning axloqiy va gumanistik ahamiyatini ta'kidlab: “Ilm orqali xalosga yetishish faqatgina yomonlikdan tiyilish bilangina vujudga keladi. Yomonlikning shoxobchalari ko'p bo'lsa ham, ularning asosi tama', g'azab va ilmsizlikdir” [3], deb yozgan.

Beruniyning asarlari orasida “Tafhim” (“Ilm-i nujumdan boshlang'ich ma'lumotlarni anglatish”) asari ham alohida o'rin egallaydi [4]. Ushbu asar ikki tilda uchraydi. Dunyo qo'lyozma xazinalarida uning arab va forsiy tillarida yozilgan 23 ta qo'lyozma nusxasi saqlanib qolgan. Bu holat asarning o'rta asrlarda nihoyatda keng tarqalganidan dalolat beradi.

Mutaxassislar tomonidan Sharq qo'lyozmalari kataloglarida Beruniyning “Tafhim” asari haqida berilgan ma'lumotlar o'rganilganda, bu asarning Toshkent nusxasi dunyodagi eng qadimiy nusxalardan biri ekani aniqlangan [5].

Asar astrologiyaga bag'ishlangan bo'lsa-da, mazmun jihatidan fanlar klassifikatsiyasini o'zida mujassam etgan bo'lib, uni arifmetika, geometriya, astronomiya, geografiya va xronologiya kabi fanlardan dastlabki tushunchalarni beruvchi darslik sifatida ham baholash mumkin. Ushbu asar 530 ta savol-javob va yetti bobdan iborat. Hozirgi davrda ham bu asar o'z ahamiyatini yo'qotmagan, chunki unda fanlarni o'qitishda pedagogik mahorat, didaktik usul va ijodiy yondashuv namoyon bo'ladi. Asarning muqaddimasida shunday deyiladi: “Mazkur asarni xorazmlik Hasanning qizi Rayhonaning iltimosiga ko'ra, o'rganishga oson bo'lishi uchun savol va javob tarzida yozdim” [6]. Beruniyning “Tafhim” asari 420/1029-yilda tasnif etilgan bo'lib, uning muqaddimasida quyidagilar qayd etiladi: “Men geometriya ilmidan boshladim. So'ngra hisob va son, keyin olamning ko'rinishi va tuzilishi, undan keyin esa astrologiya haqida yozdim. Chunki mana shu to'rtta fanni to'la o'zlashtirmagan kishilar munajjim degan nomga sazovor bo'lolmaydilar” [7]. Bu fikr orqali Beruniy aniq fanlarni o'rganish muhimligini alohida ko'rsatadi.

Beruniyning “Tafhim” deb tanilgan ushbu yirik asari falsafiy ma'noga ham ega. Asar sakkiz bobdan iborat bo'lib, 530 ta savol va ularga javob tarzida bayon qilingan. Boblarning birinchisi geometriyaga, ikkinchisi arifmetikaga, uchinchisi astronomiyaga, to'rtinchisi geografiyaga, beshinchisi astrologik astronomiyaga, ya'ni astronomiyaning astrologiyada ishlatiladigan tushunchalariga, oltinchisi xronologiyaga, yettinchisi asturloblarga va sakkizinchisi astrologiyaga bag'ishlangan. Oxirgi bob asarning deyarli yarmini tashkil etadi. Shu jihatdan qaraganda, ayrim tadqiqotchilar tomonidan unga “astrologiya” asari sifatida berilgan tavsif ham ma'lum darajada to'g'ri hisoblanadi. Chunki unda avvalgi yetti bob sakkizinchi bobda

qo‘llaniladigan asosiy tushunchalarni ochib beruvchi tayanch boblar vazifasini bajaradi.

Shunisi diqqatga sazovorki, asar qandaydir xorazmlik al-Hasanning qizi Rayhonaga atalgan. Demak, u qiz yosh bo‘lgan. Shu sababli asar “Bu nima?” mazmunidagi savollar va ularga javoblar shaklida tuzilgan. Demak, asar didaktik xarakterga ham ega. Uning falsafiyligi shundaki, muallif o‘z bayonida soddalikdan murakkablikka qarab mantiqiy izchillikni asos qilib olgan.

Akademik Yu.I. Krachkovskiy “Tafhim” asari haqida quyidagi fikrlarni bildirgan: “Bu asar katta bir ensiklopediya bo‘lib, unda geometriya, arifmetika, astronomiya va astrologiyaning muhim masalalari hamda terminlari tushuntiriladi. O‘z davrining qator fanlari bo‘yicha ma‘lumotlar beruvchi, sodda tilda yozilgan bu qomusiy asar, saqlanib qolgan qo‘lyozmalarning ko‘pligiga qaraganda, Beruniyning eng mashhur asarlaridan hisoblanadi” [8]. Bu fikr asarning bugungi kunda ham ilmiy qimmatini yo‘qotmaganini ko‘rsatadi.

Abu Rayhon Beruniy o‘zidan nihoyatda katta ilmiy meros qoldirgan bo‘lib, uning asarlari umumiy soni 180 taga yaqin deb ko‘rsatiladi. Shulardan 70 tasi astronomiyaga, 20 tasi matematikaga, 12 tasi geografiya va geodeziyaga, 4 tasi kartografiyaga, 3 tasi ob-havo masalalariga, 3 tasi mineralogiyaga, 1 tasi fizikaga, 1 tasi dorishunoslikka, 15 tasi tarix va etnografiyaga, 4 tasi falsafaga hamda 18 tasi adabiyotga bag‘ishlangan, qolganlarining ilmiy yo‘nalishi esa noma‘lum [9]. Afsuski, bu asarlarning faqat 30 ga yaqiniga bizgacha yetib kelgan. D. Bualo olib borgan izlanishlar natijasida dunyo kutubxonalarida saqlanayotgan barcha manbalar, qo‘lyozmalar, kataloglar va Beruniy asarlariga oid tadqiqotlar qiyosiy o‘rganilib, olim asarlari ro‘yxati 180 taga yetkazilgan. Hozirgacha bizga 33 ta asar yetib kelganini hisobga olsak, Beruniy merosining katta qismi hali to‘liq o‘rganilmagan, degan xulosaga kelish mumkin. Uning toponimika, trigonometriya, sferik geometriya, algebra, astrologiya, dinshunoslik, biologiya va zoologiyaga oid asarlari ham mavjud. Beruniy deyarli butun boshli ilmiy akademiya bajara oladigan ishlarni yakka o‘zi amalga oshirgan. Olimning merosini o‘rganish bo‘yicha ko‘plab ilmiy tadqiqotlar olib borilgan bo‘lsa-da, uning kam o‘rganilgan asarlarini tarjima qilish tariximizning yangi sahifalarini to‘ldiradi, deb aniq aytish mumkin.

Abu Rayhon Beruniyning insonparvarlik qadriyatlarini, turli millat vakillari o‘rtasidagi o‘zaro hamjihatlikni mustahkamlash borasidagi qarashlari bugungi kunda ham ahamiyatlidir. Mutafakkir falsafa, jamiyat, ilm-ma‘rifat hamda odob-axloq haqidagi fikrlarini chuqur tahlil qilgan. Buyuk olim qanday asar yozgan bo‘lmasin, u insonning muayyan maqsadlarini ko‘zlab qilingan ishdir. Beruniy o‘zining “Geodeziya” asarida shunday yozadi: “Ilm o‘z zoti bilan matlubdir, haqiqatan ham u barcha narsalardan lazzatli. Imdan boshqa qanday narsada manfaat zohirroq va qandayida foyda ko‘proq bo‘ladi, faqat ilm bilangina ham din, ham dunyo uchun xayrli ishlarni qilish va ularga zarar keltirishdan saqlanish mumkin. Agar ilm bo‘lmaganida, biz jalb qilayotgan narsa yomonlik emasligiga va chetlanayotgan narsa yaxshilik emasligiga ishonch bo‘lmas edi” [10]. Ushbu hikmatli so‘zlar Imom Buxoriyning “Imdan boshqa najot yo‘qdir” degan mashhur fikrini yodga soladi.

Beruniy inson kamoloti va ma‘naviy yuksalishida uch omil muhim ekanini alohida qayd etadi: nasl-nasab, ijtimoiy muhit va to‘g‘ri berilgan ta‘lim-tarbiya. Bu orqali u insonni ulug‘lash g‘oyasini Yevropa gumanizm vakillari — Petrarka, Bokachcho va Salyutattildan ancha ilgari ilgari surgan hamda inson kamoloti aynan shu uch omilning mukammal uyg‘unligida ekanini ta‘kidlagan [10]. U, shuningdek, ko‘p bilimga ega bo‘lish bilan bir qatorda, yuksak axloqiylikni ham muhim jihat sifatida ko‘rsatadi.

Beruniyning ta‘kidlashicha, inson yuksak fazilatga erishishi uchun “faylasuf ham bo‘lishi, ya‘ni hikmatlarni sevishi, uni izlashi kerak. Falsafa, ya‘ni hikmat, yunonlarda jami mavjudotdagi barcha narsaning haqiqatini bilishdan iborat. Agar inson izlanuvchan va aniqlikni talab qiluvchi bo‘lsa, ilm tarmoqlaridan biror tarmoqning to‘la ma‘nosi haqida so‘zlay olishi mumkin. Buning uchun u albatta faylasuf bo‘lishi, hamma bilimlarning asoslarini egallagan bo‘lishi lozim”. Demak, Beruniyning fikricha, fozil inson falsafiy bilimlarga ega bo‘lishi kerak.

Beruniyning ilmiy bilimlarni egallash yo‘llari va usullari haqidagi fikrlari hozirgi davr

uchun ham dolzarbdir. U o'quvchiga bilim berishda:

- o'quvchini zeriktirmaslik;
- bir xil narsani yoki bir xil fanni uzluksiz o'rgatavermaslik;
- uzviylik va izchillikka rioya qilish;
- yangi mavzularni qiziqarli hamda asosan ko'rgazmali tarzda bayon etish kerakligini

ta'kidlaydi.

Mutafakkir talabalarga qalbni yomon illatlardan, inson o'zi sezmasligi mumkin bo'lgan nuqsonlardan, xurofotdan, hirsdan, behuda raqobatdan, ochko'zlikdan va shonshuhratparastlikdan saqlash zarurligini uqtirgan. U barcha illatlarning asosiy sababi ilmsizlikda, deb biladi. Ilmlarni egallashda esa shaxsda intilish va qiziqish, shuningdek, muhit muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi. Bilim olishda tushunib o'rganish, ilmi tolibning poklikka rioya qilishi masalasiga ham alohida e'tibor beradi, jamiyat ravnaqi ma'rifat rivojiga bog'liq degan g'oyani ilgari suradi va bilim olishni axloqiy tarbiya bilan uzviy bog'laydi. Albatta, mutafakkir yoshlarni tarbiyalashda islom dini talablaridan kelib chiqib yondashadi. Uning fikricha, axloqiylik yaxshilik bilan yomonlik o'rtasidagi kurash natijasida namoyon bo'ladi. Beruniy faxrlanishni yaxshi xulq ma'nosida ishlatib, "Osor al-boqiya" asarida shunday deydi: "Faxrlanish — haqiqatda yaxshi xulqlar va oliy fe'llarda oldin ketish, ilmu hikmatni egallash va imkoniyat boricha mavjud nopokliklardan tozalanishdir. Kimda shunday sifatlar topilsa, hukm uning foydasiga va kimda bular yetishmasa, hukm uning zarariga bo'ladi". Demak, u insonning ma'naviy qiyofasidagi barcha axloqiy xislatlarni yaxshilik va yomonlik kabi ikki turga ajratadi. Beruniy kundalik turmush masalalariga ham katta e'tibor bergan. Har bir axloqan barkamol inson o'zining turmush tarzini ham uyg'un va go'zal eta oladi. Uyg'unlik esa go'zallik va nafosatning asosi sanaladi. Beruniy insoniy xislatlardan eng muhimi ozodalik va tarbiyalilik, deb biladi. U insonga eng yaqin narsa uning tabiati va ruhi ekanini ta'kidlaydi. Shuning uchun inson o'z tabiatiga yoqadigan, unga mos ishlarni bajarishi zarur, deb ko'rsatadi. Abu Rayhon Beruniy insonparvarlik falsafasini ilm, axloq va ma'naviyat uyg'unligida talqin qilgan buyuk mutafakkirdir. Uning ilmga, ta'lim-tarbiyaga va inson kamolotiga oid qarashlari bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmagan. Beruniy merosi zamonaviy ta'lim tizimini takomillashtirishda muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Beruniy Abu Rayhon. Tanlangan asarlar. III jild. Geodeziya / muqaddima, tarjima va izohlar muallifi A. Ahmedov. — Toshkent: Fan, 1982. — B. 41–42.
2. Beruniy Abu Rayhon. Tanlangan asarlar. VI jild. "Yulduzlar ilmining boshlang'ichlariga tushuntirish kitobi". — Toshkent: Fan, 1975. — B. 21.
3. Munirov Q. "Tafhim"ning Toshkent qo'lyozma nusxasi haqida // Beruniy tavalludining 1000 yilligiga bag'ishlangan to'plam. — Toshkent: Fan, 1973. — B. 124.
4. Krachkovskiy I. Yu. Tanlangan asarlar. — Moskva–Leningrad: SSSR FA nashriyoti, 1957. — B. 257–259.
5. Biolot D. J. Al-Beruniy asarlari: bibliografik tadqiqot // Mélanges. — Qohira: Sharqshunoslik instituti, 1955; Bulgakov P. G. Beruniy hayoti va ijodi. — Toshkent: Fan, 1972. — B. 290–313; Karimov U. I. Abu Rayhon Beruniy // Beruniy tavalludining 1000 yilligiga bag'ishlangan to'plam. — Toshkent, 1973. — B. 29.
6. Beruniy Abu Rayhon. Tanlangan asarlar. III jild. Geodeziya / muqaddima, tarjima va izohlar muallifi A. Ahmedov. — Toshkent: Fan, 1982. — B. 61–62.
7. Tojiyev D. Abu Rayhon Beruniyning ilmiy merosi tarixiga nazar // Oriental Art and Culture. Scientific-Methodical Journal. — 2020. — 1-jild, 2-son. — B. 85–90.
8. Beruniy Abu Rayhon. Tanlangan asarlar. III jild. Geodeziya / muqaddima, tarjima va izohlar muallifi A. Ahmedov. — Toshkent: Fan, 1982. — B. 203.
9. Hoshimov K., Nishonova S., Inomova M. Pedagogika tarixi. — Toshkent: O'qituvchi, 1996. — B. 84.
10. Beruniy Abu Rayhon. Tanlangan asarlar. I jild. — Toshkent, 1968. — B. 151.